

O'ZBEK BASTAKORLIK IJODIYOTINING O'RGANILISHI**Madinaxon Turg'unboyeva**

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSi tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12528262>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bastakorlik ijodiyoti xususida qadimgi musiqiy risolalar, tazkira va adabiy asarlardan bizgacha yetib kelgan qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, yaqin o'tmishda o'zbek bastakorlik san'ati musiqashunoslar tomonidan qanday masalalar kesimida o'rganilganligi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: bastakor, musannif, mulahhin, risola, ilmi ta'lif, tazkira, "kuychi-kompozitor".

O'zbek xalqi musiqa merosi ko'hna tarix va boy an'analarga ega. U zamonlar osha ustozdan shogirdga, avloddan-avlodga an'ana sifatida o'tib, hozirgi kunga qadar rivojlanib, sayqallanib, turfa yangi ijod mahsullari bilan boyib bormoqda. Badiiy tafakkur mahsuli bo'lgan musiqa san'atida ijodkorlik muhim tarmoq sifatida davrlar surib, o'z rivojini topgan, shuningdek, ijodkorlik hamda ijrochilik mahoratini o'z faoliyati davomida mushtarak olib borgan yetuk musiqachilar doimo xalq e'tirofida bo'lgan. Ular asosan, xalqning ijtimoiy va madaniy hayoti, uning his-tuyg'ulari, orzu-umidlarini tarannum etuvchi ijod mahsullari yaratishgan. Bunday iste'dodli, hassos san'atkorlar **b a s t a k o r** nomi bilan atadi.. "Bastakor (forscha – bog'lash, bog'lov, mashg'ulot, ish) – 1. Musiqiy asarlarni yaratuvchi ijodkor; 2. Ashula yo'llariga yangi she'rlarni bog'lovchi san'atkor; xalq kuyi va ashulalariga yangi kuy jumllarini bog'lab, ovoz, muayyan cholg'u yoki jo'rnavozlik uchun moslashtiradigan, qayta ishlaydigan ijodkor"¹dir. Yaqin va O'rta Sharq manbalarida bastakorlar musannif, mulahhin, ohangdon, navosoz, nag'masoz, nag'mapardoz kabi atamalar bilan ham nomlangan. Bu nomlar bastakorlarning uslubiy tamoyillari hamda ayrim xos qirralaridan kelib chiqqan holda ishlatilgan.

Bastakorlik san'atining tarixiy ildizlari juda qadim zamonlarga, soha mutaxassislarining ta'kidlashicha, VI asrlarga (Borbad Marviy ijodiga) borib taqaladi. 15 asrlik qadimiy tarixga ega o'zbek bastakorlik san'atining paydo bo'lishi va taraqqiyot yo'lini belgilashda, avvalo, yozma manbalar – ya'ni musiqiy risolalar hamda buyuk allomalarning ilmiy hamda nasriy asarlariga tayanamiz. Bastakorlik ijodiyotining nazariy va amaliy jihatlari xususida Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Alisher

¹ Ражабов И. Шарқ музыка атамаларининг қисқача луғати. Нашга тайёрловчи махсус муҳаррир изоҳлар муаллифи О.Иброҳимов. "TAMADDUN" нашриёти, Тошкент, 2023/ 34-бет.

Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Kavkabi, Darvishali Changiy kabi mutafakkir olimlarning risola hamda tazkiralarda qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Asrlar mobaynida milliy madaniyat, adabiy-badiiy ijodning yanada rivoj topishi, ayniqsa, o'rta asrlar tarixida "Sharq Renessansi" ("Musulmon uyg'onish davri" (IX-XII)) deya nom olgan² davrda o'zining yuksak in'ikosini topdi. Ushbu davrda ilm-fan, madaniyat shu jumladan, musiqa ilmi ham o'z tarixida yangi yuksalish davrini boshdan kechirdi. Alxusus, "X-XIII asrlar - Sharq musiqashunosligining mumtoz davrining yuqori bosqichi sanalib, arab tilidagi ilmiy adabiyotda "Kitabul-musiqa" ya'ni Musiqa kitobi atalmish janr paydo bo'ldi."³ Mazkur janrdagi risolalar, asosan, musiqa ilmining ham nazariy, ham amaliy jihatlarini, xususan, nag'malar, bo'dlar, jinslar, jamlar, alhon, iyqo, musiqiy janrlar, musiqiy cholg'ular, kuylarning yaralishi kabi masalalarni qamrab oladi. Ularda, odatda, kuylarning yaralishiga bag'ishlangan "Ilmi ta'lif" nomli maxsus bo'lim yoki maqola mavjud bo'lgan. "Ilmi ta'lif (arab. ta'lif ilmi) - qadimiy musiqa risolalarida kuyni yaratish masalalaridan baxs etuvchi qismi, sohasi"⁴ hisoblanadi.

"Ilmi ta'lif" haqida ilk nazariy-amaliy ma'lumotlarni "Sharq Arastusi", "Ikkinchi muallim" nomlari bilan fan va madaniyat olamida o'z o'rnini va mavqeyiga ega bo'lgan buyuk mutafakkir olim Abu Nasr Forobiyning "Musiqa haqida katta kitob" risolasidan topish mumkin. Keyinchalik Ibn Sinoning "Najot kitobi", Safiuddin Urmaviyning "Sharafli risola" va "Musiqa va ritm doiralari kitobi", Mahmud Sheroziyning "Deboj ko'rkidagi toj durri gavhari", Abdulqodir Marog'iyning "Kuylarning o'rnini" va "Kuylar to'plami", Abdurahmon Jomiyning "Musiqiy risolasi" va boshqa allomalar asarlarida kuy yaratilishi "ilmi ta'lif" ni o'rganish masalalari bo'yicha qimmatli amaliy ko'rsatmalar berilgan hamda oldin ijod qilgan va zamonasining mashhur bastakorlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Biroq, yuqorida nomlari keltirilgan manbalarni tadqiq qilish hamda mavzu yuzasidan o'rganishlar natijasida bastakorlik san'atining VI asrdan to XIV asrgacha bo'lgan davri va bastakorlik amali bilan shug'ullangan musiqachilar hayoti va ijodi yetarlicha ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan degan xulosaga kelish mumkin.

O'rta Osiyo hududidagi davlatlar Amir Temur (1336-1405) hokimiyati ostida birlashtirilishi natijasi o'laroq XIV asrning ikkinchi yarmidan madaniyat

² Qarang: Мец А. Мусульманский ренессанс. Москва, "Наука", 1966.

³ Орипов З. X-XV asrlar Markaziy Osiyo musiqa manbashunosligi. Toshkent, 2017, 4-bet.

⁴ Ражабов И. Шарқ мусиқа атамаларининг таскил ва тарғиби. Нашрга тайёрловчи махсус муҳаррир изохлар муаллифи О.Иброҳимов. "TAMADDUN" нашриёти, Тошкент, 2003/ 81-бет.

va san'atda yangi yuksalish davri boshlandi. Tarixiy manbalarning darak berishicha, buyuk sarkarda turli san'at turlarining bilimdoni va ishtiyoqmandi bo'lganligi uchun, bosib olingan Xuroson, Eron, Suriya kabi mamlakatlarning madaniy markazlaridan san'at ustalari, xususan, iste'dodli musiqachilar keltirar, o'z saroyida haqiqiy ijodiy jarayon muhiti paydo bo'lishi hamda madaniyat va san'at sohasi rivojlanishi uchun kerakli shart-sharoit yaratar edi. Movaraunnahr zamirida Amir Temur asos solgan yangi davlat Islom madaniyatining "Ikkinchi Uyg'onish davri" deb e'tirof etilgan.

XIV-XVI asrlar bastakorlik san'atining gullab-yashnagan davri hisoblanib, ushbu davrda juda ko'p serqirra musiqachi va bastakorlar yetishib chiqqan hamda bastakorlik ijodida yangi musiqiy janr va tamoyillar shakllangan. Bular haqida Amir Temur va temuriylar hukmdorligi davrida yozilgan tazkira⁵lar, tarixiy, adabiy, she'riy asarlardan qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Avfiyning "Lubobul-albob", Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkiratush-shuaro", Navoiyning "Majolis un-nafois", Boburning "Boburnoma"si, Vosifiyning "Badoye ul-vaqoe" kabi manbalar shular jumlasidandir.

Bastakorlik ijodiyoti tarixini o'rganishda Temuriylar hukmdorligidan keyingi davrlarda yozilgan musiqiy risolalardan Najmiddin Kavkabiyning "Risolayi musiqiy" va Darvish Ali Changiyning "Tuhfat us-surur" risolalari alohida ahamiyatga sazovordir. Ayniqsa, Darvish Ali Changiyning "Tuhfat us-surur" asarlarida o'rta asrlar so'nggi yillarida bastakorlik ijodida chuqur yoritilgan bo'lib, unda musiqashunos olim o'z davrining mashhur xonanda, sozanda, bastakor, shoir va olimlari ijodiy merosiga oid qimmatli faktlarni keltiradi. Risolada 350 ga yaqin musiqachilar nomlarini uchratish mumkin, ulardan 25 dan ko'prog'i, aynan, bastakorlik amali bilan shug'ullangan. Shuningdek, asarda bastakorlar ijod qilgan asosiy musiqiy shakllar – naqsh, peshrav, amal, qavl, savt, chorzarb, jir, tarona kabilar haqida ma'lumotlar keltiradi.

Endi esa yaqin o'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak, Sobiq Ittifoq hukmdorligi musiqa madaniyatimizga Yevropa musiqa an'analari kirib kelib, kompozitorlik ijodiyoti shakllandi va keng quloqch yoydi. Buning pirovardida, ko'p asrlik milliy bastakorlik ijodiyoti bir chetga surib qo'yildi, bastakorlar kasbiy xo'rlanib, "oqinlar", alohida professional ma'lumotga ega bo'lmagan, o'z ijodlarida faqat kuylar yaratish bilan chegaralangan "kuychi-kompozitorlar" kabi kamsituvchi nomlar bilan atalib kelindilar. Shunday mafkuraviy qarama-

⁵ Tazkira (arab. – eslatmoq, zikr etmoq) – keng ma'noda – tarix, tasavvuf, san'at sohasidagi voqea va shaxslar haqida esdalik ruhida asar, tor ma'noda – shoirlar hayoti va ijodi haqida ma'lumot, asarlaridan namunalarni keltirib tuzilgan to'plam.

qarshiliklar, kasmitishlarga qaramay, bastakorlik an'analari yo'qolib ketmay, asta-sekin o'z mavqeyini tiklay boshladi.

Bastakorlar ijodini o'rganishga qiziqish XX asrning so'nggi choragida bir muncha ortdi. Mahmud Ahmedovning "Yunus Rajabiy" (1967), "Hoji Abdulaziz Rasulov" (1974), hayoti va ijodiga bag'ishlangan ocherk janrida yozilgan bo'lsa, M.Ahmedovning "Yunus Rajabiy" (1980), "Doni Zokirov" (1995), I.Akbarovning "To'xtasin Jalilov" (1978) kabi kitoblarda ijodkorning hayoti va ijod yo'li bilan bir qatorda, aynan, bastakorlik faoliyati, bastalagan kuy, qo'shiqlari, shuningdek, nota misollari va asarlarning janr, mavzu, shakl, lad kabi musiqiy unsurlari qisqacha tahlili bilan taqdim etilgan.

Mustaqillik yillaridan boshlab bastakorlik san'atini nazariy jihatdan o'rganish va o'zbek bastakorlarining hayoti va ijodini tadqiq qilishga qaratilgan o'quv qo'llanma hamda ilmiy monografiyalar soni ortib bordi. Ular milliy bastakorlikning quyidagi masalalarini o'rganishga qaratilgan:

- bastakorlar ijodining tahlili;
- bastakorlik ijodiyoti tarixini yaratish;
- o'zbek bastakorlari ijodida maqom an'analari;
- o'zbek bastakorligida mualliflik masalalari;
- bastakorlar asarlarini notaga olish, audio yozuvlarini to'plash va boshqalar.

Istiqlol sharofati bilan S.Begmatovning "Orifxon Hotamov" o'quv qo'llanmasi (2000), N.Qosimovning "Rahmatjon Tursunov" o'quv qo'llanmasi (2003), R.Yunusovning "Faxriddin Sodiqov" monografiyasi (2005), S.Begmatov, A.Zokirovlarning "Muxtorjon Murtazoyev" o'quv qo'llanmasi (2006), N.Ahmedovning "G'ulomjon Hojiqulov" monografik o'quv uslubiy qo'llanma (2008), A.Jabborov "O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari" ma'lumotnomasi (2015, 2-nashr), R.Yunusovning Fattohxon hofiz monografiyasi (2022), S.Ubaydulloyevning "Sog'inganimda (Abduhoshim Ismoilov)" monografiyasi (2022) kabilar nashr yuzini ko'rdi. Bu mualliflar hassos bastakorlarning boy ijodiy merosini o'rganish, tahlil qilish hamda ularni madaniyat va san'at ahli, o'zbek milliy musiqasi ixlosmandlariga tanishtirishni o'z oldiga maqsad qilgan.

Bastakorlik tarixini o'rganishning ayrim masalalari, ya'ni Forobiy (X asr) dan to Changiy (XVI asr) davrigacha yozilgan risolalarda bastakorlik tarixini yoritilishi, o'tmishda shakllangan "alhon" turlari, maqomlar shakllanishida bastakorlarning o'rni, bastakorlar ijod qilgan kuy va ashulalar shakllari haqida manbashunos, maqomshunos olim Is'hoq Rajabovning "Maqomlar" nomli monografiyasining "O'tmishda bastakorlik san'atining ba'zi masalalari va kuy



shakllari”⁶ bayon etilgan. Darhaqiqat, bastakorlik san’ati tarixi, bastakorlik ijodiyotining o’zbek, shuningdek, Sharq musiqa madaniyatidagi kasbiy-ijodiy o’rni va mohiyatini aniqlashda san’atshunoslik fanlari doktori, professori To’xtasin Botirovich G’ofurbekovning ilmiy tadqiqotlari natijasida nashr yuzini ko’rgan monografiya va maqolalari benihoya ahamiyatlidir. Avvalo, “Фольклорные истоки узбекского профессионального музыкального творчества” (1984) va Творческие ресурсы национальной монодии и их преломление в узбекской советской музыке (1987) o’quv qo’llanmalari, turli maqolalarida olimning dastlabki izlanishlar tahlili yoritilgan bo’lsa, 2019-yilda chop etilgan “Bastakorlik ijodiyoti: tarixi, tahlili, taqdiri” monografiyasi esa uzoq yillik chuqur tadqiqotlar mahsuli sifatida o’zini namoyon qiladi. Mazkur ilmiy monografiyada bastakorlik san’atining Yaqin va O’rta Sharqda yuzaga kelishi shakllanish jarayoni ilk o’rta asrlar (VI-VII) mashhur bastakori, xonanda va sozanda Barbad Marviy ijodidan boshlab, XIV asr 1-o’n yilligigacha Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Qutbiddin ash-Sheroziy kabi allomalarning risolalari; o’zbek madaniyati va san’atining uyg’onish davri hisoblanmish Amir Temur va temuriylar davri (XIV asrning 2-yarmi va XV asr) da bastakorlik ijodining yetuk avj pillalaridan to XIX asr ijodiy jarayonlarigacha; o’zbek bastakorligida mualliflik masalalari, XX asrda o’zbek bastakorlik maktablari shakllanishi; an’anaviy bastakorlik ijodiyotining hozirgi kunga qadar saqlanib va sayqallanib kelgan uslubiy tamoyillari, shakl-tuzilmalari, janr turlari kabi masalalar tadqiq etilgan. Yunus Rajabiy (XX asr o’zbek musiqasi va Yunus Rajabiy) va To’xtasin Jalilov ijodiy merosiga bag’ishlangan maqolalar ham o’rin olgan.

Ma’lumki, bastakorlar yangi kuy, qo’shiq va ashulalar yaratish maqom yo’llari, zarb-usullaridan keng foydalanadilar. Shu sababli “O’zbek bastakorlari ijodida maqom an’analari” masalasini o’rganish bir qancha musiqashunoslar diqqatini o’ziga jalb qilib kelmoqda. Xalq musiqa merosi namunasi va uning mualliflik asarlarida qo’llangan variantini qiyosiy tahlil qilish, umumiy jihatlar va farqlarini ochib berishni I.Rajabovning “Maqomlar masalasiga doir” monografiyasida “Shashmaqom va xalq musiqa ijodiyoti” bo’limida birinchilardan tadqiq etgan bo’lsa, keyinchalik T.G’ofurbekov “Maqomlar - bastakorlik ijodiyotida” R. Yunusov “Fattohxon Mamadaliyev ijodida maqom an’analari” maqolalari, yosh musiqashunoslarning ushbu mavzudagi bitiruv malakaviy ishlari, shuningdek, 2024-yil “Maqom ijodiyotining dolzarb

⁶ Ражабов И. Мақомлар. Нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир: О.Иброҳимов. Тошкент, 2006, 43-бетлар.

masalalari” I Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi⁷dagi ba’zi taqdimotlar fikrimizning yorqin misoli bo’la oladi.

Keltirilgan fikrlarni muxtasar qilib aytish mumkinki, bastakorlik ijodiyoti shakllanishiga ko’p asrlar bo’lganiga qaramay, turli davr va turli siyosiy jarayonlar ta’sirida o’z taraqqiyot yo’lini to’xtatmadi. Ayniqsa, XX asr bu san’atning rivoj topishida muhim davr vazifasini o’tagan bo’lib, aynan ushbu davrda, bir tomondan, bastakorlik amaliyoti kesimida ko’plab noyob ijod mahsullari yaratilgan bo’lsa, ikkinchi tomondan uning nazariy masalalari bo’yicha ham bir qator qimmatli tadqiqotlar olib borildi. Bastakorlik san’ati tarixiy davri, XX asrda ijod qilgan bir qancha yetuk bastakorlar ijodi tahlili jarayonida milliy bastakorlikning ayrim umumiy muammolar yoritilganiga qaramay, hali o’rganilmagan, tadqiqotchilar e’tiboridan chetda qolgan nazariy masalalari bisyordir. O’ylaymizki, kelgusida bu san’atga yanada qiziqish ortadi, bastakorlik ijodiyoti bilan shug’ullanuvchi ijodkorlar, uning nazariyasi bilan shug’ullanuvchi musiqashunoslar soni ortib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Орипов З. X-XV асрлар Марказий Осиё музыка манбашунослиги. Тошкент, 2017.
2. Ражабов И. Мақомлар. Нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир: О.Иброҳимов. Тошкент, 2006.
3. Ражабов И. Шарқ музыка атамаларининг қисқача луғати. Нашрга тайёрловчи махсус муҳаррир изоҳлар муаллифи О.Иброҳимов. “TAMADDUN” нашриёти, Тошкент, 2023.
4. Юнусов Р. Фахриддин Содиқов. Тошкент, 2005.
5. Юнусов Р. Фаттоҳхон ҳофиз. “Adast poligraf”, Тошкент, 2022.
6. Ғофурбеков Т. Бастакорлик ижодиёти: тарихи, таҳлили, тақдири. “Muharrir” нашиёти, Тошкент, 2019.

⁷ Maqom ijodiyotining dolzarb masalalari. I Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to’plami. Mas’ul muharrir: A.Sunhatillayev. Toshkent, 2024, 220 bet.